



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

BRONXIAL ASTMA KASALLIGI. SABABLARI, KLINIK BELGILARI, DAVOLASH USULLARI. BRONXIAL ASTMANI DAVOLASHDA SHIFOBAXSH DAMLAMALAR

Abdurashitova Diyora Kenjayevna

Tayyorladi. Ma'ruza, Chirchiq tibbiyot kolleji

"Maxsus fanlar-2" kafedrasi yetakchi o'qituvchisi

Annotation

Bugungi kunda yurtimiz aholisi orasida uchraydigan nafas a'zolari kasalliklarining asosiy qismini bronxial astma, surunkali obstruktiv o'pka kasalliklari va pnevmoniya tashkil etadi. Masalan, dunyo statistikasi bo'yicha bronxial astma kasalligi aholi orasida 5 % hollarda uchraydi. Bu ko'rsatgich bolalar orasida yanada ko'proq 10 % ni tashkil qiladi.

Shuning uchun ushbu kasallik haqida ma'lumotlarga ega bo'lib, o'z vaqtida oldi olinsa, davolash ishlari o'z vaqtida boshlansa ushbu kasallikni to'liq nazorat qilish mumkin va yuzaga kelasigan asoratlardan holi bo'ladi. Ushbu maqolada bronxial astma kasalligini keltirib chiqaruvchi sabablari, klinik belgilari, davolash, shifobaxsh o'simliklardan damlamalar tayyorlash yoritilgan.

Kalit so'zlar: bronxial astma, bronxospazm, cho'ntak ingalyatori, atopik bronxial astma, allergen, ekskretor hansirash, bo'g'ilish, allergiya

Bronxial astma

Bronxial astma- surunkali infekcion-allergik kasallik bo'lib, bronxlar muskulaturasi tortishib qisqarishi natijasida odamning nafasi qisib, bo'g'ilish qolishi, keyin yo'talib yopishqoq balg'am tashlashi bilan xarakterlanadigan kasallikdir.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



Sabablari:

Bronxial astmaning paydo bo'lishida juda ko'p omillar sabab bo'lmoqda. Omillar infektion va noinfektion turlarga bo'linadi.

Infektion omillarga turli xil bakteriyalar, viruslar, qo'ziqorinlar, gelmentlar, sodda jonivorlar keltirib chiqaradi. Juda ko'p hollarda yuqori nafas yo'llari kasalliklaridan keyin va surunkali bronxitlardan keyin kelib chiqaradi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bronxial astma vazomotor rinit, allergik sinusit, burun polipozidan so'ng rivojlanadi.

Noinfektion omillarga allergenlar kiradi.

Uy ro'zg'or changlari allergenlari, hayvon va o'simlik allergenlari (daraxt va o'simlik changlari, gullari, hayvon yunglari).

Oziq-ovqat allergenlari (tuxum, qulupnay, shokolad, baliq).

Dori moddalari (antibiotiklar, perazalon unumlari).

Kimyoviy allergenlar (sun'iy tolalar, buyoqlar).

Bronxial astma kasalligining kelib chiqishiga sabab bo'luchchi noinfektion allergenlar, atopik allergenlar deyiladi.

Bronxial astmaning kelib chiqishida markaziy nerv sistemasining roli ham katta. Ayrim hollarda o'tkir psixik zo'riqish evaziga ham boshlanadi. Bronxial astmaning bu turi nevrogen tur deb ataladi.

Kasallikning kelib chiqishida irsiy omillar ham sabab bo'lishi mumkin.

Bronxial astma sabablari

Chekish, sigaret tutuni



Kuchli xis-hayajon



Xayvon yungi



Shamollahsh



Jismoniy zo'riqish



Obi-havo o'zgarishi

Tarakanlar



Chaglar

Xayvon yungi



Oziq-ovqatlar



Mog'orlar



Sorug



O'tkir xidlar



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Klinik belgilari (alomatlari):

Asosiy klinik belgis nafas qisishi, bo‘g‘ilish xurujidir. Kasallikni xuruj qilishi har kimda har xil. Kimdadir jismoniy mashqlar bilan tinimsiz shug‘ullanganda yoki allergiya yoki his-hayajonga berilishida, yana birovlarda har uchchala holatda ham xuruj qilib qolishi mumkin.

Atopik bronxial astma (allergenlar ta’sirida vujudga keladigan turi) kasalligining xarakterli belgisi- bu xurujning to‘satdan boshlanishi bo‘lib, bunda bemorni ko‘pincha burun bitganligi, ko‘krak sohasidagi noxush sezgilar, majburiy yo‘tal bezovta qiladi. Infektion allergik bronxial astma kasalligida nafas qisish xuruji astasekinlik bilan bronxit simptomlarining zo‘riqishi ko‘rinishida boshlanadi. Bronxial astma xurujida bemorlar o‘zlarini bo‘g‘ilib qolayotgandek his qiladilar, nafas qisadi. Nafas qisish ko‘pincha kechasi ro‘y beradi. Nafas chiqarish qiyinlashadi (ekskretor hansirash). Nafas olish shovqinli bo‘ladi. Masofadan ham hushtaksimon xirillashlar eshitilishi mumkin.

Xuruj tutgan vaqtida bemor majburiy holatni oladi, ya’ni kasallik xuruj tutgan vaqtida bemor qo‘llariga tayangan holda, elkalari ko‘tarilgan, biroz oldinga chiqqan holda o‘tirib majburiy nafas ola boshlaydi.





Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



O'pka auskultatsiyasida nafas chiqarishning cho'zilganligi, juda ko'p har- xil quruq xirillashlar eshitiladi.

Perkussiyada quticha tovushi eshitiladi. O'pkaning pastki chegaralari kengayganligi aniqlanadi.

Puls tezlashadi. Xuruj vaqtida avval yo'tal tutadi va keyin qiyin ajraluvchi yopishqoq balg'am tashlaydi.

Kasallikning yengil turida xurujlar kamroq, engil o'tadi. Xuruj haftasida bir marotaba bo'lishi mumkin. Dori moddalari yoki ingalyatorlardan foydalanish bilan o'tib ketadi. Bu holat ko'proq atopik bronxial astmaga xosdir. Bunda og'ir xurujlar ham tez o'tib ketib, normal nafas harakatlari tiklanadi.

Infektion- allergik bronxial astmada xurujdan chiqish sekin boradi, asta-sekin hansirash kamayadi va bemor holati yaxshilanadi. Bunday bemorlarda xuruj oralig'i ham qiyin o'tadi, nafas olish qiyinlashadi va o'pkada quruq xirillashlar eshitiladi. Bronxit kasalligi bilan birga kechuvchi bronxial astma kasalligidagi xurujlar tez-tez qaytalanadigan, uzoq davom etadigan, o'pka emfizemasi va nafas etishmovchiligidagi olib keladi.

Davolas

Bronxial astma kasalligini butunlay davolab bo'lmaydi, ammo uni davolash choralari bilan yengillatish mumkin.

Bronxial astmani davolashda uning turlariga e'tibor berish qat'iy talab qilinadi, chunki xastalikni allergiyali va allergiyasiz holatlari, yengil, o'rta, va og'ir formalari mavjud, ularning har biri o'z turiga qarab muolaja qilinadi. Shuning uchun bronxial



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

astma kasalligini medikamentlar yoki xalq tabobati bilan davolashda shifokor maslahatisiz ish ko'rish man qilinadi.

Kasallikni davolashda dastlab keltirib chiqargan allergenni bartaraf qilish.

Xuruj oralig'ida davolashning o'ziga xos tomonlari bor.

Yengil turida bronxlarni kengaytiruvchi moddalarni ingalyasiya yo'li bilan qabul qilish (astmopent, salbutamol, berotek, berodual).

Ayrim hollarda tabletkalar qabul qilish eufillin yoki volmaks tabletkalari.

Issiq sodali ingalyasiyalar.

Oyoqqa gorchichnikli vannalar.

Antigistamin preparatlari (suprastin, pipolfen, allerji, demidrol).

Bronxial astmaning o'rtacha og'ir va og'ir turida bemorlar kasalxona sharoitida yotib davolanishlari zarur.

Vena ichiga eufillin eritmasi tomchi usulida natriy xloridning izotonik eritmasi bilan birga yuboriladi.

Kortikosteroid gormonlari (prednizolon, gidrokartizon) vena ichiga yuboriladi.

Og'ir bemorlar uchun kortikosteroidli ingalyatorlar (beklamet, bekoit, beklazon) tavsiya qilinadi.

Kasallikning remissiya bosqichida sanatoriylarda davolanish yaxshi foyda beradi.

Yashash joylarini o'zgartirish yoki uy zihozlarini almashtirish ham foyda beradi.

Parvarish qilish:

Bemor holatini diqqat bilan kuzatish. Uni tinchlantirish, tushkun kayfiyatdan chiqarish lozim. Kasallikning yaxshi oqibatlariga ishonch hosil qila olishi kerak. Xuruj boshlangudek bo'lsa bemorning qisib turgan kiyimlarini yechib, toza havo bilan taminlab, bemorga qulay vaziyat yaratib, orqasiga yostiqlar qo'yib, zudlik bilan shifokorni chaqirishi lozim.

Bronxial astma kasalligida qo'llaniladigan shifobaxsh o'tlardan damlamalar

1. Bir litr suvga 2,5 sm uzunlikdagi 4-5 bo'lak zanjabil novdasini solib, 5 daqiqa qaynatasiz va kun davomida ichib yuriladi.
2. Tuzli suvda qaynatilgan zanjabilga 1 choy qoshiq asal, 4 choy qoshiq yovvoyi maysa urug'ini qo'shib qaynating vat un bo'yi bostirib qo'ying. Damlamani har ertalab uyg'onganda va kechqurun uyqidan oldin ichiladi. Bu nafas yo'llarini ochilishiga yordam beradi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3. Bir stakan qaynagan suvgaga 1 osh qoshiqda do'lana mevasidan solib 20-30 daqiqaga damlab qo'yib 3 mahal ichish tavsiya qilinadi
4. Bir stakan qaynoq suvgaga 1 choy qoshiqda krapiva o'simligini quritilganidan solib 10-15 daqiqa damlab, choy o'rnida ichish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.A. Cherepok, N.G. Volox. Bronxialnaya astma. O'quv qo'llanma. 2017 yil
2. A.V. Govorin, D.N. Zaysev. Bronxialnaya astma. O'quv qo'llanma. 2021 yil
3. Haydarov G'.O. "Ichki kasalliklar" 2002 yil
4. Y.I. Arslonov, T.A. Nazarov "Ichki kasalliklar" 2013 yil
5. Internet ma'lumotlari